

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518884>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Kurbanova Yulduz Djumaevna

Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'linda tarbiyani tashkil etish
kafedrasi o'qituvchisi,
ykurbanova1961@gmail.com

Eshmo'minova Farzona Bobir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'linda yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Insonning hayoti davomida egallashi lozim bo'lgan barcha bilimlarning ko'p qismini maktabgacha yoshdagi davrida egallashi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan. Maktabgacha yosh davrida bolalarda jismoniy o'sish bilan birga shaxsiy sifatlar shakllanadi. Bugungi kunda maktabgacha yosh davri-danoq bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga alohida e'tibor qara-tilmoda. Buning uchun maktabgacha ta'linda psixologik xizmatni rivojlantirish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'linda psixologik xizmatni tashkil etish, psixologning amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifalari, maqsadi, psixologning tarbiya-chi va ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lindan tizimi, psixologik xizmat, psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, hamkorlik, rivojlanish, ijtimoiy moslashuv.

O'zbekiston Respublikasida ta'lindan tizimining birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lindi rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda maktabgacha ta'lindan tizimini tub-dan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lindan tashkilotlarini barpo etish, ularni

yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxas-sislar bilan ta 'minlash, mактабгача та 'лим сифатини ошириш, ilg'or xorijiy tajri-balarni ta 'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentining O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil-10 maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha komp-leks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatda maktabgacha ta'lim tash-kilotlarini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagogolar bilan ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom psi-xologik muhitni ta'minlash, psixologik xizmat sohasini yo'lga qo'yishni takomil-lashtirish muhim hisoblanadi.

Psixologik xizmatning maqsadi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo'yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzlusiz ta'lim jarayonida o'zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Psixolog o'zining inson xulq atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyot-ning yosh qonuniyatları xaqidagi kasbiy bilimlariga, ularning bolalar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlariga, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlar-ning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Ushbu ishlarni amalga oshirish orqali psixolog maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya ishining samaraljrligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish orqali quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni psixologik salomatligini muhofaza etadi, ularni bolalar bog‘chasi muhitiga moslashtirish va matabda o‘qishga tayyorlash borasidagi psixologik tadbirlarni amalga oshiradi.

2. Har bir bolaning shaxsi, bilish jarayonlarini, ruhiy holatlarini o‘rganish maqsadida psixologik-pedagogik tashhisdan o‘tkazib, natijalarini tahlil etadi, tadqiqiy ma’lumotlarni maxsus tashhis daftariga qayd etadi va tegishli psixologik korreksion-rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi. Tarbiyachilar va ota-onalar bilan hamkorlikda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantiruvchi, psixokorreksion o‘yinlar, mashg‘ulotlar mazmunini ishlab chiqadi va muntazam ravishda o‘tkazadi.

3. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilari, mutaxassislari va ota-onalar bilan bolalarning psixologik xususiyatlari, rivojlanishida o‘ziga xos tomonlari, salbiy odatlarining oldini olish va boshqa masalalar doirasida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazadi, ularning psixologik ma’lumotlilik darajasini oshirish yo‘lida har xil tadbirlar, savol-javoblar, davra suhbatlari tashkil etadi.

4. Psixologik metodikalar yordamida bolalarning qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini aniqlaydi, ularning rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratadi, tarbiyachilar, ota-onalarga maslahatlar beradi.

5. Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni aniqlashda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda ish tutadi, bunday bolalarning ta’limi va tarbiyasini tashkil etish hamda kamchiliklarini tuzatishda faol ishtirop etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi ish rejasini tuzishda quyidagi maqsadlarni belgilab olishi maqsadga muvofiq:

- * bolalarni maktabga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlashda tarbiyachi va psixologning hamkorligi;
- * maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtidorli bolalar bilan ishslash;
- * Bolalarni tarbiyalash va rivojlanishda olia bilan hamkorlik;

* maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablarida ijtimoiy-hissiy rivojlanish ko‘rsatkichlari;

* maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologи ishlarini rasmiylashtirish, hujjatlar bilan ishslashda axborot texnologiyalarining o‘rni.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishuvchi maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologidan quyidagilar talablar talab etiladi :

1. Psixodiagnostikaning metodik vositalarini bilish.
2. Axloq qoidalariga amal qilish.
3. Zarur kasbiy va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish.
4. Psixologik muammoni qo‘ya bilish.
5. Sinaluvchilardan zarur ma’lumotlami ola bilish.
6. Olingan ma’lumotlarni sinaluvchi qiziqishlariga mos tarzda qo‘llay bilish.

Maktabgacha talim tashkilotida psixolog bolalarning rivojlanishi va ta’lim-tarbiya olishlari uchun qulay sharoitlar yaratilganlini nazardan qoldirmasligi kerak. Shuningdek bolalarning har tomonlama rivojlanishida oilalar bilan xamkorlik ishlarini amalga oshiradi. O‘z navbatida ota-onalar va tarbiyachilar bolalar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yuzasidan psixologga murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarining psixologlariga asosan ota-onalar quyidagi masalalarda murojaat qiladilar:

Ota-onsa psixologga farzandlarining psixik va aqliy rivojlanish darajasini aniqlab berishni so‘rab murojaat qiladilar. Ayrim hollarda ota-onalarning murojaati bolalarning qobiliyatlarini aniqlab berish yuzasidan bo‘ladigan iltimoslaridan iborat. Ota-onalar bola xulqidagi salbiy xislatlar tufayli paydo bo‘lgan xavotirlar bo‘yi-cha murojaat qiladilar. Bunda ota-onalar asosan bolalarning tajavuzkorligi, tortin-choqligi, xayolparastligi, his-hayajonga beqarorligi, asabiylashuvchanligi yuzasi-dan murojaat qiladilar.

Psixologning vazifasi bolani bu yoshda biror sohaga masalan, musiqa yoki matematikaga majburan intensiv oqitishning salbiy oqibatlarini tushuntirib, bola uchun ayni

damda har tomonlama rivojlanish muhimligini ota-onas ongiga yetkaza bilishdan iborat bo‘ladi.

Shu tufayli profilaktika maqsadida mактабгача та’лим ташкiloti psixologi ota-onalar bilan olib boriladigan targ‘ibot- tashviqot ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yishi kerak. Bu borada o‘ziga xos “Ota-onalar klubi”ni tashkil etish maqsadga muvo-fiqdir.

Tarbiyachilar ham kamroq bo‘lsa-da psixologga murojaat qiladilar. Ko‘pchilik tarbiyachilarni asosan tajavuzkor yoki yomon o‘zlashtiruvchi bolalar tashvishga soladi, chunki har ikki toifadagi bolalar bog‘chadagi tarbiyaviy jarayonni qiyin-lashtiradilar. Haddan tashqari tortinchoq, oziga ishonmaydigan bolalar tarbiyachi-laming alohida e’tiborini talab qiladi, shuning uchun tarbiyachilarni asosan bola-dagi u yoki bu xususiyatning psixologik mexanizmi rivojlantiruvchi mashq va o‘yinlar, o‘yinchoqlarni tanlashda nimaga koproq etibor berish haqidagi psixolog maslahati qiziqtiradi. Zero, bunday malumotlar tarbiyachilarga bolalar bilan ish-lashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi bolalarni aqliy va ruhiy rivojlanishini kuzatibgina qolmay uning taraqqiy etishida tarbiyachi va ota-onalarga yaqindan yo‘dam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Nishanova.Z.T. Psixologik xizmat, T.-Yangiyul poligraph service, 2007.
2. Nishanova Z.T. va boshq.Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. T-2018
3. Bannayev M.S. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari.
4. Сапогова Э.Е. Психология развития человека. Аспект Пресс 2005
5. Kurbonova Y.D. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining rivojlanishinidagi o‘ziga xosliklar.Educational Research in Universal Sciences, 2023 , 2(6 SPECIAL), 394–398.